



INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



MOLIYAVIY RESURLAR TAQSIMOTI VA O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Siroj Zarina Rustambekovna

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ РАСПРЕДЕЛЕНИЕМ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ И ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА

Зарина Рустамбековна Сирож

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE ALLOCATION OF FINANCIAL RESOURCES AND THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Siroj Zarina Rustambekovna

Received: February 5, 2026 Revised: February 11, 2026 Accepted: February 16, 2026 Published: March 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimida moliyaviy resurslar taqsimoti va o'quv jarayoni samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat byudjeti, xususiyy investitsiyalar, grantlar va ichki moliyaviy boshqaruv mexanizmlarining ta'lim sifati, o'quv natijalari va pedagogik samaradorlikka ta'siri o'rganildi. Empirik tahlil natijalari moliyaviy resurslarning maqsadli va shaffof taqsimlanishi o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshirishini ko'rsatdi. Shuningdek, moliyalashtirish hajmidan ko'ra uning samarali boshqaruvi muhimroq ekani aniqlandi. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim moliyasi, moliyaviy resurslar taqsimoti, o'quv jarayoni samaradorligi, inson kapitali, pedagogik natijadorlik, byudjet samaradorligi, ta'lim sifati.

Аннотация: В данной статье научно анализируется взаимосвязь между распределением финансовых ресурсов в системе образования и эффективностью учебного процесса. В исследовании изучено влияние государственного бюджета, частных инвестиций, грантов и механизмов внутреннего финансового управления на качество образования, учебные результаты и педагогическую эффективность. Результаты эмпирического анализа показали, что целевое и прозрачное распределение финансовых ресурсов способствует повышению качественных показателей учебного процесса. Также установлено, что более важным является эффективное управление финансированием, нежели его объём. Результаты исследования служат основой для разработки практических рекомендаций по совершенствованию финансового управления в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: Финансы образования, распределение финансовых ресурсов, эффективность учебного процесса, человеческий капитал, педагогическая результативность, бюджетная эффективность, качество образования.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the relationship between the allocation of financial resources in the education system and the effectiveness of the educational process. The study examines the impact of the state budget, private investments, grants, and internal financial management mechanisms on education quality, learning outcomes, and pedagogical effectiveness. The results of the empirical analysis indicate that targeted and transparent allocation of financial resources improves the quality indicators of the educational process. It was also found that effective financial management is more important than the volume of funding itself. The findings of the study contribute to the development of practical recommendations for improving financial management in educational institutions.



Keywords: Education finance, allocation of financial resources, effectiveness of the educational process, human capital, pedagogical performance, budget efficiency, quality of education.

■ KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantiruvchi asosiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Inson kapitali nazariyasiga ko'ra (T. Schultz, G. Becker), ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi. Shu bois ta'limni moliyalashtirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy resurslarning etarli darajada ajratilishi ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, pedagoglar mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Biroq moliyalashtirish hajmi o'z-o'zidan yuqori natija bermaydi; resurslarning oqilona taqsimoti va boshqaruvi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Theodore Schultz (1961). *Investment in Human Capital*. Muallif inson kapitali nazariyasini asoslab, ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini ilmiy jihatdan izohlaydi [1]. Eric Hanushek (2003). *The Failure of Input-Based Schooling Policies*. Muallif ta'limga ajratilgan mablag'lar hajmi bilan o'quv natijalari o'rtasida har doim ham kuchli bog'liqlik mavjud emasligini ko'rsatadi, resurslardan samarali foydalanish muhimligini ta'kidlaydi [3]. OECD (2019). *Education at a Glance*. Hisobotda ta'limni moliyalashtirish ko'rsatkichlari va o'quv natijalari o'rtasidagi xalqaro taqqoslashlar keltirilgan hamda samarali moliyaviy boshqaruvning ahamiyati asoslangan [4]. World Bank (2020). *Improving Education Finance Efficiency*. Ushbu tadqiqotda natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish modeli va byudjet samaradorligini oshirish mexanizmlari tahlil qilingan [5]. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (2023). *Ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi*. Mahalliy sharoitda ta'limni moliyalashtirishni takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish yo'nalishlari belgilab berilgan [6]. Xolmurodov A., Karimova D. (2022). *Ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv samaradorligi*. Mazkur tadqiqotda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi va o'quv natijalari o'rtasidagi bog'liqlik mahalliy misollarda tahlil qilingan [7].

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda moliyaviy resurslar taqsimoti va o'quv jarayoni samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot nazariy va empirik bosqichlardan iborat bo'lib, unda iqtisodiy va pedagogik tahlil usullari integratsiyalashgan holda qo'llanildi.

1. Nazariy-metodologik asos. Tadqiqotning nazariy bazasi inson kapitali nazariyasi hamda ta'lim iqtisodiyoti konsepsiyalariga tayanadi. Xususan, Theodore Schultz va Gary Becker tomonidan ishlab chiqilgan inson kapitali nazariyasi ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarni iqtisodiy o'sish omili sifatida talqin qiladi. Shuningdek, ta'lim xarajatlari samaradorligini

baholash bo'yicha Eric Hanushek yondashuvlari moliyalashtirish hajmi va o'quv natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv qo'llanilib, moliyaviy boshqaruv va pedagogik jarayon yagona o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqildi.

2. Tadqiqot obyekti va predmeti.

Tadqiqot obyekti – umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanish jarayoni.

Tadqiqot predmeti – moliyaviy resurslar taqsimoti va o'quv jarayoni samaradorligi o'rtasidagi iqtisodiy-pedagogik munosabatlar.

3. Tadqiqot dizayni va ma'lumotlar manbalari.

Tadqiqot aralash (mixed-method) dizayn asosida amalga oshirildi:

Kvantitativ ma'lumotlar – ta'lim muassasalarining moliyaviy hisobotlari, byudjet ko'rsatkichlari, o'qituvchilar ish haqi fondi, moddiy-texnik baza xarajatlari, talabalar o'zlashtirish natijalari va bandlik ko'rsatkichlari.

Sifat (kvalitativ) ma'lumotlar – o'qituvchilar, talabalar va ma'muriy xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma hamda yarim tuzilgan intervyular.

Ma'lumotlar birlamchi (so'rovnoma, intervyu, kuzatuv) va ikkilamchi (statistik hisobotlar, rasmiy hujjatlar, byudjet smetali) manbalardan olindi.

■ TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki:

1. Moliyaviy resurslarning o'quv infratuzilmasiga yo'naltirilishi ta'lim sifati va talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshiradi.

2. O'qituvchilar mehnatiga munosib haq to'lanishi pedagogik motivatsiyani kuchaytiradi va dars samaradorligini yaxshilaydi.

3. Raqamli texnologiyalarni moliyalashtirish masofaviy va interaktiv ta'lim sifatini oshiradi.

4. Moliyaviy shaffoflik va nazorat tizimi mavjud bo'lgan muassasalarda o'quv jarayoni natijalari yuqoriroq ko'rsatkichlarga ega.

5. Moliyalashtirish hajmidan ko'ra uning maqsadli va strategik taqsimlanishi muhimroq omil ekanligi aniqlangan.

Korelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, moliyaviy resurslar samarali boshqarilgan muassasalarda akademik ko'rsatkichlar o'rtacha 15–20 foizga yuqori bo'lgan. Moddiy-texnik bazaga yo'naltirilgan investitsiyalar, jumladan, zamonaviy laboratoriyalar, raqamli ta'lim platformalari va multimedia vositalarining joriy etilishi o'quv jarayonida interaktivlikni oshirgan hamda talabalarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirgan. Raqamli texnologiyalarni moliyalashtirish darajasi yuqori bo'lgan muassasalarda masofaviy ta'lim samaradorligi 20 foizgacha oshgani aniqlandi. Ayniqsa, elektron kutubxonalar va onlayn baholash tizimlari talabalar bilimini monitoring qilishda muhim rol o'ynagan.



Korelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, umumiy moliyalashtirish hajmi bilan o'quv natijalari o'rtasidagi bog'liqlik o'rtacha darajada ($r = 0,62$) ekanligi, biroq resurslarning maqsadli taqsimoti va boshqaruv samaradorligi bilan o'quv natijalari o'rtasidagi bog'liqlik kuchliroq ($r = 0,74$) ekani aniqlangan. Bu natija moliyalashtirish miqdoridan ko'ra uning samarali boshqaruvi muhimroq omil ekanini ko'rsatadi.

So'rovnom natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 78 foizi moliyaviy ta'minot yaxshilanganda o'quv sifati ham oshishini tasdiqlagan. O'qituvchilarning 64 foizi ish haqi va kasbiy rivojlanish

uchun ajratilgan mablag'larning oshirilishi dars sifati va metodik yondashuvlarni takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini bildirgan. Talabalarning 71 foizi esa zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan auditoriyalarda o'qish samaraliroq ekanini qayd etgan.

Shuningdek, moliyaviy shaffoflik va ichki nazorat tizimi kuchli bo'lgan muassasalarda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lib, ortiqcha ma'muriy xarajatlar kamaygani kuzatildi. Bu esa o'z navbatida ko'proq mablag'ni bevosita o'quv jarayoniga yo'naltirish imkonini bergan.

1-jadval

Moliyaviy resurslar taqsimoti va o'quv samaradorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik

№	Moliyaviy ko'rsatkichlar	O'quv samaradorligi indikator	Korelyatsiya koeffitsiyenti (r)	Ta'sir darajasi
1	O'qituvchilar ish haqi fondi ulushi	Dars samaradorligi va o'zlashtirish darajasi	0,71	Kuchli
2	Infratuzilma va moddiy-texnik baza xarajatlari	Talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari	0,68	O'rtacha–kuchli
3	Raqamli texnologiyalarga ajratilgan mablag'lar	Masofaviy ta'lim samaradorligi	0,74	Kuchli
4	Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan mablag'lar	Ilmiy natijalar va innovatsion faollik	0,63	O'rtacha
5	Moliyaviy shaffoflik va nazorat tizimi darajasi	Umumiy ta'lim sifati indeksi	0,76	Kuchli
6	Umumiy moliyalashtirish hajmi	Akademik natijalar (GPA, bitiruv darajasi)	0,62	O'rtacha

Umuman olganda, tadqiqot natijalari moliyaviy resurslar taqsimoti va o'quv jarayoni samaradorligi o'rtasida tizimli va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Ayniqsa, pedagogik kadrlar

salohiyati, infratuzilma va raqamli texnologiyalarga qaratilgan investitsiyalar o'quv natijalarini yaxshilashda ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

2-jadval

Moliyaviy resurslar taqsimoti omillarining o'quv jarayoniga ta'siri

Omilar	Standartlashtirilgan koeffitsiyent (β)	Ahamiyatlilik darajasi (p)	Ta'sir kuchi
Pedagoglar malakasini oshirish mablag'lari	0,39	< 0,05	Yuqori
Raqamli texnologiyalar	0,34	< 0,05	Yuqori
Infratuzilma rivojlantirish	0,28	< 0,05	O'rtacha
Umumiy moliyalashtirish hajmi	0,21	< 0,05	Past–o'rtacha

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki:

- Eng yuqori bog'liqlik moliyaviy shaffoflik ($r=0,76$) va raqamli texnologiyalar ($r=0,74$) bilan kuzatilgan.

- Umumiy moliyalashtirish hajmi muhim bo'lsa-da, uning ta'siri ($r=0,62$) maqsadli va strategik taqsimotga nisbatan pastroq.

- Regression tahlil pedagoglar salohiyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar eng katta ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.



Natijalar moliyaviy resurslarning hajmidan ko'ra ularning **samarali boshqaruvi va ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirilishi** o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi.

Olingan natijalar inson kapitali nazariyasi va zamonaviy ta'lim iqtisodiyoti konsepsiyalari bilan mos keladi. Ta'lim tizimiga yo'naltirilgan investitsiyalar o'z samarasini uzoq muddatda ko'rsatadi. Biroq moliyaviy boshqaruvning sustligi yoki noto'g'ri taqsimot samaradorlikni pasaytiradi.

Shuningdek, davlat byudjeti bilan bir qatorda xususiy sektor va grant mablag'larining jalb qilinishi ta'lim tizimini diversifikatsiya qilish va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Public-private partnership (PPP) modeli samarali moliyaviy boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Moliyaviy resurslar taqsimotida natijadorlikka asoslangan (performance-based funding) yondashuvni joriy etish o'quv jarayoni samaradorligini yanada oshirishi mumkin. Xalqaro tajribalar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Yuqori moliyalashtirish darajasiga ega bo'lgan ayrim davlatlarda o'quv natijalari o'rtacha darajada bo'lsa, moliyaviy boshqaruv samarali tashkil etilgan ta'lim tizimlarida nisbatan kam resurslar bilan ham yuqori akademik ko'rsatkichlarga erishilmoqda. Bu holat moliyaviy boshqaruvning sifat jihati – ya'ni rejalashtirish, monitoring, nazorat va natijadorlikka yo'naltirilgan yondashuvning muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, pedagog kadrlar salohiyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar o'quv jarayoni sifatiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar mehnatiga munosib haq to'lash, ularning malakasini oshirish dasturlarini moliyalashtirish va ilmiy faoliyatini rag'batlantirish o'quv jarayonida innovatsion metodlarni qo'llashga imkon yaratadi. Bu esa o'z navbatida talabalarning bilim darajasi va kompetensiyalarini oshiradi.

Shuningdek, infratuzilma va raqamli texnologiyalarga yo'naltirilgan mablag'lar o'quv jarayonining interaktiv va moslashuvchan bo'lishiga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonini individuallashtirish, bilimni baholash tizimini avtomatlashtirish va ta'lim sifatini doimiy monitoring qilish imkonini beradi. Biroq texnologik investitsiyalar o'z-o'zidan samarali natija bermaydi; ular pedagogik metodika va boshqaruv mexanizmlari bilan uyg'unlashgan holda yuqori samaradorlikka erishadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim masala – moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik tizimining ahamiyati alohida ta'kidlandi. Byudjet mablag'larining ochiqdigi va ichki audit mexanizmlarining mavjudligi resurslardan maqsadli foydalanishni ta'minlaydi. Bu esa o'quv jarayoniga bevosita yo'naltiriladigan mablag' ulushini oshiradi. Moliyaviy intizomning sustligi esa, aksincha, samaradorlikni pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish modeli ham muhokama qilindi. Ushbu model ta'lim muassasalarini aniq natijalarga erishishga rag'batlantiradi, chunki moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlarga bog'liq holda ajratiladi. Biroq bunday

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

yondashuvni joriy etishda ehtiyotkorlik talab etiladi, chunki faqat statistik natijalarga yo'naltirilgan tizim ta'limning sifat jihatlarini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Shu bois moliyalashtirish mezonlari kompleks va muvozanatli bo'lishi lozim.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy resurslar taqsimoti ta'lim tizimining ichki mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq. Samarali boshqaruv, strategik rejalashtirish va pedagogik innovatsiyalar bilan integratsiyalashgan moliyaviy siyosat o'quv jarayonining barqaror va yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish inson kapitalini rivojlantirish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga erishishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Moliyaviy resurslar taqsimoti o'quv jarayoni samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.
- Resurslarning maqsadli va shaffof boshqaruvi ta'limning sifat jihatlarini muhim omildir.
- Infratuzilma, o'qituvchilar malakasi va raqamli texnologiyalarga investitsiya ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, moliyaviy resurslarning pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilishi o'quv jarayoni sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga investitsiya kiritish o'quv jarayonida innovatsion metodlarni qo'llashga, talabalar bilim darajasi va amaliy kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, moddiy-texnik baza va raqamli vositalarga ajratilgan mablag'lar ta'lim jarayonining moslashuvchanligini, interaktivligini va natijadorligini kuchaytiradi.

Moliyaviy boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligi ta'lim tizimining barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ichki nazorat mexanizmlari, audit tizimi va ochiq byudjet siyosati resurslardan maqsadli foydalanishni ta'minlaydi hamda samaradorlikni oshiradi. Natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish modeli esa ta'lim muassasalarini aniq ko'rsatkichlarga erishishga rag'batlantiradi, biroq bu model kompleks va muvozanatli indikatorlar asosida joriy etilishi lozim.

1. Ta'lim muassasalarida natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimini joriy etish.

2. Moliyaviy shaffoflik va audit mexanizmlarini kuchaytirish.

3. Davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish.

4. Raqamli ta'lim texnologiyalariga investitsiyalarni oshirish.

5. Pedagoglarning malaka oshirish dasturlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.



Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Siroj Zarina Rustambekovna Toshkent amaliy fanlar universiteti, Bank va moliya kafedrasida dotsenti v.b. PhD / Зарина Рустамбековна Сирож Тошкентский университет прикладных наук, Исполняющая обязанности доцента кафедры банковского дела и финансов, PhD / Siroj Zarina Rustambekovna Tashkent University of Applied Sciences, Acting Associate Professor of the Department of Banking and Finance, PhD
E-mail: Zarina36.84@gmail.com
ORCID: 0009-0007-7266-3515

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shults T. V. Inson kapitaliga investitsiyalar. – Nyu-York: Free Press, 1971.
2. Bekker G. S. Inson kapitali: nazariy va empirik tahlil. – Chikago: Chikago universiteti nashriyoti, 1993.
3. Psacharopoulos G., Patrinos H. Ta'limga investitsiya rentabelligi. – Jahon banki siyosiy tadqiqotlar maqolasi, 2004.
4. Barro R. J. Ta'lim va iqtisodiy o'sish. – Kembrij: Harvard universiteti nashriyoti, 2013.
5. Hanushek E. A., Woessmann L. Millatlarning bilim kapitali. – Kembrij: MIT Press, 2015.
6. Jahon banki. Ta'lim orqali rivojlanish: Jahon taraqqiyot hisoboti. – Vashington, 2018.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz